

Ona yurti - oltin beshiging

TONG YULDUZI

N: 49
(66486)
2004 yil
6 dekabr - 12 dekabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYI HARAKATI.

Diqqat, gripp!

QULOQ OG'RIG'I BO'LMANG

Hurmatli bolajonlar! Gripp juda tez tarqaladigan yuqumli kasallik bo'lib, uni maxsus viruslar ko'zga atadi. Kasallik bemordan sog' kishiga havo orqali yuqadi. Yuqori nafas yo'llari kasalligining alomatlar ham grippga o'xshab ketadi. Masalan: aksirish, tomoq qichishi, ko'zdan yosh oqishi, ishtahaning yo'qolishi kabi alomatlar paydo bo'lganda shamollashga yo'yish to'g'ri emas. Gripp bilan og'rib qolgan bola holsizlanadi. Organizmning kasallikka qarshi kurashishi pasayib ketadi. Natijada zotiljam, quloq og'rig'i, buyrak kasalliklari paydo bo'ladi. Gripp umuman organizmni zaharlaydi, uni quvvatdan ketkazib, boshqa yuqumli kasalliklarga yo'l ochib beradi.

Gripp xavfli kasallik bo'lgani uchun uning oldini olish lozim. Buning uchun tozalikka rioya qilish zarur. Vitamin «S»ga boy bo'lgan oziq - ovqat mahsulotlarini ko'proq limon, na'matak damlamasini iste'mol qilish kerak. Xonalarni tez-tez shamollatib turish lozim.

Kasallikning birinchi alomatlar paydo bo'lishi bilan tezda shifokorga murojaat qiling.

M.Z. KAMOLOVA,
Hamza tuman Davlat sanitariya epidemiologiya
nazorati markazi bolalar va o'smirlar gigiyenasi
bo'limi mudiri.

O'rnak oling

birgina Toshkent shahrida «Tong yulduzi» gazetasining 70 ming obunachisi bo'lar ekan-da? Boshqarma boshlig'i yurtimizni yuritib,

so'mdan boradi... Tezroq obunani tashkillash kerak deb Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasining boshlig'i Anvar Shukurovich Zokirovga murojaat qilganimizda, ustoz 2005 yilda

«Tong yulduzi»ga kelgan xatlarning aksariyati, Buxoro, Andijon, Xorazm tomonlardan. Beixtiyor savol tug'iladi:

- Surxondaryo, Qashqadaryo... aytaylik

POYTAXT BOLALARI GAZETA O'QIYDI

Toshkentning o'zida uning o'quvchisi yo'qmi?

-Nega yo'q bo'lar ekan? Axir «Tong yulduzi» mamlakatimiz siyosati, tinchlikparvar g'oyasini bolalarga yetkazadigan yagona gazeta-ku. Faqat, bu yerlarda kattalarning e'tiborsizligi sabab, unga obuna bo'lishga oshiqadiganlar kamchilikni tashkil etadi xolos. Qolaversa, darsingni qil, deb turishmasa hamma o'quvchi o'z bilganicha dars qilmaganidek, obuna mavsumida kattalar vaqt ajratib farzand-u shogirdlarini shoshiltirmasa, o'quvchilar gazetasiz qolib ketaveradi-da! Shu kunlarda gazeta do'konlarda 150 so'mdan sotilmoqda. Obunachilar qo'lga esa 45



shahrimizdagi har 5 o'quvchining bittasi «Tong yulduzi»ga obuna bo'ladi, deb yubordilar. Bunday gap biz uchun juda katta voqea edi! Axir poytaxtimizda 315 ta maktab bo'lsa, ularda 348 ming nafar o'quvchi tahsil oladi. Demak,

yaratuvchanlikka hissa qo'shayotgan, aql bilan yaxshi yashashga intilayotganlarning hammasi-kechagi gazetxon, bugungi kitobxon ekanligini anglagan inson ekan. Biz ustozga ishonamiz.

SO'ZDAN SARALADIK SIZGA GULDASTA

Sinf rahbarimiz O'ktamxon opa Rahimova bu yil boshqa maktabga ishga o'tibdi. Bizlarga bir necha yil rahbarlik qilgan O'ktam opa bolajonlarni jon-dillaridan sevardilar. Qimmatli

Qutlov

o'quvchilarida katta taassurot qoldirgan. Ular o'tkazgan tarbiyaviy soatlar natijasida tarbiyasi qiyinroq bo'lgan o'quvchilar ham sinfimizning eng yaxshi o'quvchilariga aylangan. Barchamiz bilan sirdosh, ota-onalarimiz bilan suhbatdosh bo'lgan ustozimiz har yili bizni «Tong yulduzi» gazetasiga 70 foiz obuna qilardilar.

Sevimli gazetamiz orqali ustozimizni 8 dekabr - tavallud topgan kunlari va



vaqtlarini ayamasdan biz bilan Xotira maydoniga, hayvonot bog'iga, G'afur G'ulom istirohat bog'iga, kino teatrlarga borardilar. O'ktamxon opa o'tkazgan Navro'z, Yangi yil, Hosil bayramlari butun sinfimiz

Konstitutsiya bayrami bilan chin qalbimizdan qutlaymiz. Kelajakda ustozimiz orzulagan vatanimiz kelajagi uchun sodiq farzandlar bo'lib yetishishga harakat qilamiz. Shogirdlaringiz qutlovini qabul qiling. O'ktamxon opa!

Anvar va Mirjamol ABDURAHMONOVlar,
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 328-maktabning 9- «A» sinf o'quvchilari.

Men Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 15-maktabning 5-sinfida o'qiyman. Maktabimizning barcha o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasini sevib mutolaa qilishadi. Shuning uchun ham bu yil paxta terimida qatnashib, olgan

IQTISODCHI BO'LAMAN

daromadimizga yoppasiga shu gazetaga obuna bo'ldik. Bu gazeta orqali bir necha yillardan buyon «Iqtisod saboqlari» rukni ostida topshiriqlar berib borilayapti. Biz matematika ustozimiz Abdurazzoq aka Jo'rayev boshchiligidagi ana shu topshiriqlarga javob topishga harakat qilamiz. Maktabimiz o'quvchilari Respublika iqtisod tanlovida qatnashib, faxrli 2-3- o'rinlarni olishdi. Bu muvaffaqiyatlarga yetishishimizda «Tong yulduzi»ning ham o'rni bor, albatta. Men kelajakdagi maqsadimni belgilab oldim. Niyatim - yetuk iqtisodchi bo'lib, bilimim va kuchimni O'zbekistonning ravnaqiga bag'ishlamoqchiman. Maktabimiz va «Yosh iqtisodchilar» to'garagi a'zolari nomidan O'zbekistonning barcha bolalarini «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishlariga chorlaymiz. «Tong yulduzi»ni o'qing, bilim saviyangiz oshib, dunyoqarashingiz kengayadi.

Sirojiddin SALIMOV.



HAYOT KO'ZGUSI

Yer yuzida inson paydo bo'libdiki, hayotning o'ziga xos me'yorlariga, qonun-qoidalariga rioya qilib yashaydi. Davlat bor ekan, uning o'z qonunlari bor. Bu qonunlar, ya'ni Konstitutsiya asosida davlatlar idora qilinadi.

Konstitutsiya - «o'rnatish», «belgilash» degan ma'nolarni bildirib, miloddan avvalgi asrlarda Rimda qabul qilingan. Hozir ko'pgina davlatlar o'z Konstitutsiyasiga muvofiq ish ko'radilar. Konstitutsiyada inson manfaatlarini birinchi o'rinda turgan. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari alohida moddalar bilan belgilab qo'yilgan. Ota-onaning farzand oldidagi, farzandning ota-ona oldidagi burchlari, vazifalari, majburiyatlari davlat hokimiyatini tashkil etishdagi fuqarolarning huquqlari barcha-barchasi Konstitutsiyamizda aytib o'tilgan. Fuqarolar o'z konstitutsiyaviy burch va

huquqlarini yaxshi bilishlari va ularga rioya qilishlari lozim. Shundagina biz oliy maqsadimiz adolatli, huquqiy demokratik davlat tuzishimiz mumkin. Hozirgi kunda ushbu maqsad yo'lida maktab o'quvchilariga, hatto bolalar bog'chalarida ham Konstitutsiya haqida ma'lumotlar berilmoqda. Har yili maktablararo o'tkaziladigan «Siz qonunni bilasizmi?» ko'rik-tanlovlari, Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tadbirlar ham yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan. Konstitutsiya va qonunlarni faqatgina o'quvchilar emas, balki har bir fuqaro bilishi va unga amal qilishi kerak.

Muhtarama KOMILOVA,
Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 1-IIMBning 9-«G» sinf o'quvchisi.

Tengdoshingiz saboq beradi

ЎЗБЕКISTON РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИ

YIL DAVOMIDA HAMROHIMIZ

Biz Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi 7-o'rta maktabda o'qiydigan. Sirdoshimiz, do'stimizga aylangan «Tong yulduzi» gazetasiga har yili birinchilardan bo'lib obuna bo'lamiz. Sinfimizda ta'lim olayotgan 22 nafar o'quvchining barchasi 2005 yil uchun obuna bo'lishdi. Keyingi vaqtlarda gazetaning rangli tarzda chop etilib, unda turli-tuman mavzularidagi ruknlar berib borilishi bizni juda quvontiradi. Kelgusi yilda ham undan olam-bahra olishimizdan baxtiyormiz.

ADOLATLI DUNYO QUYOSHI

Barcha mustaqil deb e'lon qilingan davlatlarning o'z gerbi, bayrog'i, shuningdek, Konstitutsiyasi bo'lishi kerak. Bizning Konstitutsiyamiz 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, bu yil uning 12 yilligini nishonlaymiz. Konstitutsiya bor joyda adolatsizlikka yo'l qo'yilmaydi. U bor joyda haqiqat qaror topadi.

*Faxr hamda g'ururim o'zing,
Adolatli dunyo quyoshi.*

*Sen tufayli aslo oqmagay,
Begunohlar qatra ko'z yoshi.*

*Sen tufayli jami yomonlik,
Vazshilikka bosh egar doim.*

*Senga hech kim qilmas xiyonat,
Fup qo'yib tinch yasholmas xoin.*

Sanobar JUMANOVA,
A.Navoiy nomidagi

Nafis san'at litseyi 10-«A» sinf o'quvchisi.

Mustaqillik sharofati bilan biz o'z Konstitutsiyamizga ega bo'ldik. Erkinlik va ozodlik, mustaqillik va hurlikni tantanali tarzda o'zida namoyon etuvchi bu muqaddas huquqiy hujjat qabul qilingan qutlug' kunni xalqimiz bayramona nishonlab kelmoqda. Mutaqilligimiz Konstitutsiyasi davlatimiz mustaqilligining ulkan ramzi bo'lib, unda o'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz aks etadi. Uning qabul qilinishi

BAXTIMIZ QOMUSI

esa, taraqqiyot sari qo'yilgan eng katta odim bo'ldi. Unga binoan, o'zbek xalqining yo'li bitta — ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish, mutaqilligimizni asrab, mamlakat ravnaqini ta'minlash. Biz yoshlar esa ana shu mamlakatimizning taraqqiyotiga, ravnaqiga, bor bilim va malakalarimizni sarflab, Konstitutsiyamiz bizga yaratib bergan huquq va erkinliklardan foydalangan holda yurtimiz uchun yonib yashashimiz kerak.

Nargiza RAHMONOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod shahri,
9-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.

SOG'INIB

*Gohida sog'inib yashayman yomon,
Shamollarda qolgan xayollarimni.
Gohida o'zimdanda qilaman gumon,
Axtarib yashayman o'z o'ylarimni.
Sokin xira tortar biroz fikrlar,
Chalg'iydi hattoki eng zo'r xohishim.
Jonga tegar goho ikir-chikirlar,
Gohida hayotga tik boqishlarim.
Sog'inib yashayman o'zimni-o'zim,
Garchi bo'lsa hamki hayot beshavqat.
Bortiqni angolmay shamg'alat ko'zim,
Quruq suratimni ko'raman faqat.
Biroz fursat o'tar, cho'kar sukunat,
Fumanday tarqaydi va shu lahzada,
Qalamga talpinar qalbdagi so'zim,
Fopganday bo'laman o'zimni-o'zim.*

Umida RUSTAMOVA,

Borovskiy nomidagi Toshkent shahar tibbiyot kollejining 2-boshqich talabasi.

BIZNING HIMOVACHI

*Yonimga keldi shosha,
G'uvillab ukam Suhrob.
-Varrak yasayin, opa,
Bering anavi kitob.*

*Deyman: Axir bu kitob,
Bizni qilar himoya.
Xo'mrayganacha der shu tob:
-Surati yo'q, ko'rdim boya.*

*-Qomusda-chi, mujassam,
Poklik, hurtlik, adolat.
O'qisang senga hamdam,
Bo'lar baxtu saodat.*



*U borki, seni hech kim,
Nohaq xafa qitolmas.
Vazshi odamlarga jim,
Fosh otilsa, turotmas.*

*U bor, bor bo'lar millat,
E'tiqod, til va imyon.
Jahon uzra sen savlat,
To'ki yurasan, ishon.*

*Haqiqat izlab qancha,
Bobolar berishgan jon.
E'zozla to o'lguncha,
Unda muxtasar Qur'on.*

Shahnoza RAVSHANOVA,
Chirchiq shahar, 2-ixtisoslashtirilgan
maktabning 7-sinf o'quvchisi.

Yaqinda to'garagimiz nomiga kelgan maktublar orasidagi qalingina xat jild diqqatimizni tortdi. Uni Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 19-maktab o'qituvchisi Rayhonoy Ergasheva yo'llabdi. Maktub mazmuni quyidagicha edi:

«Men 6-sinf o'quvchilariga ona tili va adabiyot fanidan dars beraman. Shuningdek, badiiy ijod bilan ham shug'ullanaman. Ham bir ijodkor, adabiyotchi bo'lganim uchun o'quvchilarimdagi mustaqil fikrni, ijodkorlikni juda qadrlayman.

Yaqinda darsda Janni Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchuk» nomli ertagini o'tdim. Ertakda hurishni eplolmagan bir kuchukning boshidan kechirganlari hikoya qilinadi. Dastlab xo'roz unga qichqirishni o'rgatadi. Xo'rozga o'xshab qichqirib, o'rmonda tulkiga kulgi bo'ladi. Keyin kakku «ku-ku»lashni o'rgatadi. Ku-kulayotgan kuchukni ovchilar otib qo'yishlariga oz qoladi. Shu tariqa adib ertakni ajoyib tarzda yakunlaydi. Uning 3 ta yakuni bor: Birinchisida kuchuk sigirga o'z tilini o'rgatadi. Ikkinchisida bir dehqon uni tovuqlariga qo'riqchi qilib boqib oladi.

Nihoyat, uchinchisida kuchuk hurishni o'rganib oladi. Xullas, ertakning g'oyasi o'zligini unutish, o'z tilini yo'qotish va uning zararli oqibatlarini haqidadir...

Men o'quvchilarimga ertakning to'rtinchi yakunini yozishni topshirdim. O'quvchilarim oz fursatda ertak yakunini yozib berishdi. Ularni o'qib, bolalarning uchqur xayol sohibi ekanliklariga yana bir bor amin bo'ldim. O'quvchilarim yozgan to'rtinchi yakun balki Janni Rodarining xayoliga ham kelmagandir. Agar ular

o'z mitti hikoyalarini sevimli gazetalari «Tong yulduzi» sahifalarida o'qishsa, juda xursand bo'lishardi».

Bizning to'garak

Farg'onalik tengdoshlaringiz

yozgan mitti hikoyalar bizga ham ma'qul bo'ldi va ulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etishni lozim topdik.

Siz ham bu ertakni o'zingizcha yakunlashga urinib ko'ring. Balki sizning hikoyalaringiz yanayam qiziqarliroq, ishonchliroq chiqar. Ularni bizga yuborishni unutmang.


ERTAKNING TO'RTINCHI YAKUNI

Shunday qilib, hurishni o'rganib olgan kuchukcha

Lutfullaxo'ja HUSANXO'JAYEV,
6 - «V» sinf o'quvchisi.

sevinchi ichiga sig'may «vov-vov» deya volullagancha o'rmonga yugurib ketibdi. Yo'lda qichqirishni o'rgatgan xo'rozga duch kelibdi. «Qani kuchukcha, o'rgatganimdek qilib bir qichqirib ber-chi», debdi. Shunda kuchukcha bor ovozi bilan vovullab bergan ekan, xo'roz qo'rqqanidan daraxt shoxiga chiqib olibdi. Xursand bo'lgan kuchukcha hurishni bilmagani uchun uning ustidan kulgan tulkini izlab ketibdi. «Ha, yana kelyapsanmi? Seni nima deb atashni ham bilolmay turibman, xo'roz desammikin, kakkuxon deb chaqirsammikin?», deya mazax qilibdi yana tulki. Kutilmaganda qattiq hurib yuborgan kuchukning ovozini eshitib, dovdirab qolibdi. Yana ovchilar kelib qolmasin, degan hadikda ura qochib qolibdi...


Qilgan ishidan mamnun bo'lib, o'rmondan qaytayotgan kuchukchani bir bolakay ko'rib qolibdi va uyiga olib ketibdi. Shunday qilib, kuchukcha murodu maqsadiga yetibdi.



Ulug'bek AKROMOV,
6 - sinf o'quvchisi.

Hurishni o'rganib olgan kuchuk o'rmonda yana o'sha ovchiga duch kelib qolibdi. Miltig'ini unga to'g'rilab, mo'ljalga olibdi. Shu payt kuchuk unga qarab vovullab yuboribdi. «Uning o'rnida boshqa kuchuk bo'lganda ura qochib qolardi. Bu esa juda dovyurak kuchuk ekan», deya xayolidan o'tkazibdi ovchi va uni o'zi bilan olib ketibdi.

Shunday qilib, o'z tilini o'rganib olgan kuchuk vatanli ham bo'lib olibdi. Ovchining o'g'li bilan do'stlashib olib, murodu maqsadiga yetibdi.



Hurishni o'rganib olgan kuchuk dehqon boboni izlab ketibdi.

Jahongir KARIMOV,
6 - «G» sinf o'quvchisi.

Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yurib, uni topib boribdi. Qarasa, dehqonning hovlisida boshqa bitta kuchuk yurganmish. «Bu xonadonga mening keragim yo'q ekan-da», degan xayolda boshini eggancha chiqib ketayotgan ekan, uni dehqon ko'rib qolibdi. Yoniga chaqirib, Nala laqabli o'z kuchugi bilan tanishtirib qo'yibdi. Qornini to'ydirib, unga Simba degan nom beribdi. Tez orada Simba va Nala turmush qurishibdi va beshta bolali bo'lishibdi. Hurishni bilmaydigan kuchuk bolalariga o'z hayoti haqida hikoya so'zlashni juda yoqtirarkan.

Kuchukcha hurishni o'rganib olgandan so'ng uning hayoti butunlay o'zgarib ketibdi. Ovchilar

Zafar JO'RAYEV,
6 - «G» sinf o'quvchisi.

unga o'q uzmaydigan, tulki va xo'rozlar undan uzoqroq yuradigan bo'lishibdi. Hatto bir ovchi uni boqib ham olibdi. Ovchining uyida yana bitta kuchugi bor ekan. Hurishni o'rganib olgan kuchuk unga uylanibdi. Ular bir etak bola ko'rishibdi. Bolalari biri-biridan chiroyli, do'mboq va juda sho'x ekanlar. Ota kuchuk ularga vovullashni o'rgata boshlabdi. Kuchukchalardan eng kichigi xuddi otasi kabi hurishni juda kech o'rganibdi.



Dilafro'zon ENAZAROVA,
6 - «G» sinf o'quvchisi.

Hurishni o'rganib olgan kuchuk yo'lda ketayotib unga qichqirishni o'rgatgan xo'rozga duch kelibdi. «Xo'sh kuchukvoy, xo'rozlarning tili senga yoqdimi?», deb so'rabdi xo'roz. «Judayam yoqdi. Menga til o'rgatganing uchun senga ming rahmat! Ammo men o'z tilimni o'rganib oldim. Boshqa tillar ham yaxshi-yu, lekin o'z ona tilimga etmaydi-da...», deb javob beribdi. O'z tilidan tashqari yana uchta tilni o'rganib olgan kuchuk sirkda tomoshalar ko'rsata boshlabdi.



Hurishni o'rganib olgan kuchukcha unga o'z tilida «so'zlash»ni o'rgatgan kuchukni o'ziga ustoz bilib, hurmatini joyiga qo'yibdi. Biror yemish topgudek bo'lsa, ustoz bilan baham ko'radigan bo'libdi...

Kunlardan bir kuni dalada sayr qilib yurgan «ustoz-shogird»ni bobo dehqon ko'rib qolibdi. Odamlarning tilini ham bemalol tushunadigan bu odobli, tartibli kuchuklarni dehqon yoqtirib qolibdi. Kattasini qo'y-

Mohigul ABDURAHMONOVA,
6 - «D» sinf o'quvchisi.

qo'yilariga, kichigini esa tovuq va jo'jalariga qo'riqchi qilib qo'yibdi. O'z vazifalarini astoydil bajarayotgan bu kuchuklarni ko'rib, ular bizning eng yaqin do'stlarimiz ekan, deya xulosa chiqarishibdi odamlar.

CHEVAR QIZ BO'LAMAN

Muxlisa QOSIMOVA, Toshkent tumanidagi A.To'laganov nomli 7-maktabning 5 - «B» sinf o'quvchisi. Uning orzu-umidlari haqida esa quyidagi suhbat orqali bilib olasiz.

-Muxlisa, avvalo maktabingiz, sinfdoshlaringiz haqida gapirib bersangiz...

-Bizning maktabimiz xuddi dam olish maskaniga o'xshaydi. Chor-atrofi daraxtzor, hovlisi keng, xushbo'y gullar ekilgan katta gulzori bor. Buning ustiga, maktabimiz hovlisidan katta anhor oqib o'tgan. Bu yerda ayniqsa, yoz faslida mazza bo'ladi. Ba'zi bolalar oromgohga ham bormay, maktabimizda tashkil etilgan to'garaklarga qatnab, sog'lomlashtirish oromgohlariga



kelishadi. Dugonalarimga kelsak, «Yuz so'm puling bo'lgandan, yuzta do'sting bo'lgani yaxshi», degan naqlga amal qilib, do'stlarim yana ham ko'p bo'lsa, deyman. Chunki ularning davrasida odam o'zini erkin his qiladi.

-Endi o'qishga kelsak, sizga ko'proq qaysi fanlar yoqadi?

-Menga hamma fanlar yoqadi. Deyarli barchasidan besh bahoga o'qiyman. Ko'proq rasm chizishga qiziqqanim uchun rasm darsi mening jonu dilim. Men tabiat manzaralarini, tengdoshlarimning rasmlarini, ertak qahramonlarini chizishni juda yaxshi

ko'raman.

-Bo'sh vaqtlaringizni qanday o'tkazasiz?

-Bo'sh vaqtlarimda uy yumushlarida oyijonimga yordam

beraman. Agar ulardan ham vaqtim ortib qolsa, qo'g'irchoqlarimga turli ko'ylakchalar tikaman. O'zim ko'ylaklarni modellashtiraman. Yana bu yil yozda maktabimizda ochilgan munchoq bilan tikish to'garagiga qatnashdim. O'zim yaratgan modellarga munchoq tikib, tajribamni oshirib




turibman.

-O'z-o'zidan ma'lumki, kelajakda...

-Men kelajakda tikuvchi modelyer bo'lmoqchiman. O'zim modalar atelesi ochib, turli rusumdagi liboslar

yaratish bilan shug'ullanaman. Yana katta bo'lsam, mashina haydashni o'rganmoqchiman. Bu ham mening



orzuim.

Men Muxlisaga kelajakdagi maqsadlariga albatta yetishishiga tilakdosh bo'lib, u bilan xayrlashdim. Muxlisadek bo'lajak tikuvchi-modelyerlar liboslarimizni chet ellarda ham namoyish qilib, o'z yo'nalishlarida tinmay mehnat qilib, orzulariga yetishishlariga ishonamiz.

Kamola ERGASH qizi suhbatlashdi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

BRONTAZAVR

Brontazavr tanasining uzunligi 18 metrga borgan. Uning boshi kichkina, bo'yni ingichka va baquvvat, dumi esa uzun va kuchli bo'lgan Brontazavrlar o'txo'r hayvon hisoblangan. Tuxum qo'yish yo'li bilan ko'paygan. Yetuk brontazavrning og'irligi taxminan 20

bo'lmagan. 150 mln. yil avval qirilib ketgan. Uning suyaklaridan yasalgan skeleti jahon muzeylarida, hususan Amerikada saqlanmoqda.

DIPLODOK

Shimoliy Amerika botqoqliklarida yashagan. Tashqi ko'rinishidan brontazavrga o'xshash bu hayvon S

«UCHINCHI SAYYORA» BO'YLAB SAYOHAT


tonna(!) atrofida bo'lgan. U to'rt oyoqlab, zalvorli qadam tashlab yurgan. Oldingi oyoqlari orqa oyoqlariga nisbatan kalta bo'lgani tufayli engashib yurgan. Orqa oyoqlari nihoyatda baquvvat va kuchli bo'lgan. Tuxumdan chiqqan bolalari juda sekinlik bilan rivojlanganlar.

Poleantologlar fikricha, u taxminan 200 yilgacha umr ko'rgan. Brontazavr yuqori Yura davrida Shimoliy Amerikada yashagan. U dushmanlaridan himoyalaniish uchun ko'p vaqtini botqoqliklarda va suv ichida o'tkazgan. Chunki uning tana qismi zirx bilan qoplanmagan. Bosh va dum qismida esa nayzali suyaklar

harfiga o'xshash bo'yni va dumining ingichkalashib tugashi bilan undan farq qilgan. Bundan tashqari, uning bo'yi uzunligi ham brontazavrdan farq qilib, 27 metrgacha borgan. U suv o'tlari va mayda molyuskalar bilan oziqlangan. Og'irligi 23 tonnacha keladigan bu hayvon to'rt oyoqlab yurgan. Qadamining uzunligi taxminan 3-6 metr atrofida bo'lgan. Dushmanlarida himoyalaniish maqsadida ko'p vaqtini suvda o'tkazgan.

Diplodok suyaklaridan yasalgan skeleti jahonning ko'pgina davlatlarida, xususan

Moskva, London, Parijda saqlanmoqda. 150 mln. yil avval Yer yuzasidan tamomila yo'q bo'lib ketgan.




IGUANODON

Bu juda ham bahaybat kaltakesak bo'lib, bo'yining balandligi 5 metrga, tana uzunligi esa 10 metrgacha borgan. Eng qizig'i, uning qo'llarida beshtadan barmoqlari bo'lgan. U dushmanlaridan himoyalaniishda ana shu barmoqlaridan mohirlik bilan foydalangan. Bosh barmoqlari bilan

dushmaniga kuchli zarar yetkazgan. Iguanodonning bosh barmog'i pichoq vazifasini o'tagan bo'lishi ham mumkin. Tana qismi kuchli dum bilan tugallangan.

Mustaqil dars

Iguanodonning old oyoqlari yaxshi rivojlanmaganligi uchun asosan orqa baquvvat oyoqlarida zalvorli qadam



tashlab yurgan. Qisqa masofaga chaqqonlik bilan harakat qila olgan. O'txo'r hayvon hisoblangan. Iguanodonlar Yevropada yashagan. Ularning suyaklaridan yasalgan skeleti Yevropa muzeylarida, Germaniya, Angliyada saqlanmoqda.

Uning oxirgi avlodlari taxminan 100 mln. yil avval qirilib ketgan.

(Tamom.)


Bahrom AKBAROV.

ASALDAYIN

Hayot asli biram shirin,
Asaldayin.
Oziri hech ko'rinmas bir,
Masaldayin.
Sog' bo'lib ham, ba'zan o'zi
Kasaldayin,
Hayot asli shirin ammo
Zahardayin...

QORA SHARPA

Ajal panjalari, o'lim sirtmog'i,
Zulmat qarshisida kelajak unut...
Ey, ofat, ey, jirkanch, ey, qora sharpa,
Qandayin balosan, O'IS — SPID?
Attomalar hayron, donishmandlar lol,
Vujud qasri vayron, sho'rtik umr uvol,
Dunyo odamlarin o'rtagan savol:
Qandayin balosan, O'IS — SPID?!



Murg'ak chaqaloqlar, ma'sum go'daklar,
Atlang, ne orzular, no-ne tilaklar...
Boqib zor qaqshaydi hayhot, yuraklar,
Qandayin balosan, O'IS — SPID?
Nahotki chorasi bo'lmasa ey, voh,
Qayda davo, ayting qayerda panoh?
O'zing chorasin ber ey Rab, ey Olloh,
Qandayin balo bu, O'IS — SPID?
Shahnoza TURSUNOVA,
Denov tumani, o'quvchi.

QOR EMAS OPPOQ, PAR EMAS YUMSHOQ

ANVAR
SOBIRJON o'g'li

Bu topishmoqning javobini hamma bolalar biladi, deb o'ylayman. To'g'ri. Bu — PAXTA.

O'lkamizga kuz kelishi bilan bobo dehqonlarimizning mehnatlari evaziga yetishtiriladigan paxta pishadi.

tayyorlaydigan daraxtning xuddi tutnikiga o'xshash barglari bor, lekin daraxtning o'zi yovvoyi atirgulga o'xshaydi».

Xitoy tarixchisi Liang: «Turonda mevali pillani eslatadigan o'simlik ko'p o'stiriladi. Pillasida zig'irpoya

undan gazlama to'qishadi».

G'o'zaning qanday o'sishini ko'rmagan yevropaliklar paxta haqida turli xil rivoyat va afsonalar to'qiganlar. Ular paxta bu o'simlik va qo'yning chatishidan iborat, unda jun o'sadi, deb o'ylashgan. Shu tufayli g'o'zaga «daraxt qo'zisi» deb nom qo'yishgan. Ingliz Jon Mandevil 1355 yilda yozgan «Sayohat» kitobida paxta haqida shunday yozadi: «Qovoqqa o'xshash meva o'sadi va ular (qovoqlar) pishganida, o'rtasidan kesadilar va ichidan misoli yosh qo'zichoqqa o'xshagan go'shtli, suyakli va qonli, sirtida juni bor hayvonni oladilar. Unisining ham, bunisining ham, mevasini ham, hayvonini ham yeydilar-buyuk mo'jizadir. Bu mevaning men edim». Bolalar, bu so'zlarni o'qiyotib, «Juda olib qochibdi-ku! Yolg'on ham evi bilanda», degan gapni o'ylagandirsiz. Biroq, Dyurenning 1681 yili chiqqan «O'simliklar tarixi»

kabi yolg'on-yashiq afsonalarni o'qib, bolalarini paxta bilan qo'rqitgan bo'lsalar ham, ajab emas. Hayriyat, tez vaqt ichida yevropalik savdogarlar, birinchi navbatda inglizlar ko'p paxta yetishtiradigan Hindiston bilan aloqa o'rnatganlaridan so'ng paxta haqida afsonalar to'qish barham topadi. Bugungi kunda paxta dunyoning beshita qit'asida - Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya va Yevropada o'stiriladi. AQSH, Xitoy, Hindiston va O'zbekistonda katta maydonlarda g'o'za o'stiriladi. Shuningdek, Pokiston, Turkiya, Misr, Sudan, Chad, Maliy,

uchraydi. Jimitday chanog'ining ustida bir santimetr uzunlikdagi jigarrang tolali chigiti bo'ladi. Avstraliyada guli pushti va binafsharang, barglari katta-katta paxta butalarini ko'rish mumkin. Markaziy va Janubiy Amerikada paxtaning gullaguniga qadar bargini tashlab yuboradigan, bo'yi 4 metr ga yetadigan, yerda yoyilib o'sadigan, jigarrang va yashil tolalari bo'lgan xillari o'sadi. Meksikada uncha baland bo'lmagan paxta daraxtlaridan iborat o'rmonlar uchraydi. Peruning tog'li vodiylarida, daryo bo'ylarida

G'aroyib o'simliklar



Ikkinchi bo'lim INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI

V bob

UMUMIY QOIDALAR

18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

19-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat va bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

20-modda. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Paxta o'zbek xalqining milliy boyligi. Bolalar, siz g'o'zaning qanday turlari borligi va ular dunyoning qaysi mamlakatlarida o'sishini, paxtadan qanday mahsulotlar olinishini yaxshi bilasizmi? Yo'q, deysizmi? Bo'lmasa, eshiting.

Qadim zamon tarixchilari paxta to'g'risida turlicha yozganlar. Yunon faylasufi Geradot paxta haqida gapirib, shunday deydi: «Hindlar kiyim

tolasiga o'xshagan ipagi bor», deb yozadi. Qadimiy yunon olimi Geafrast Arabiston bo'ylab sayohat qilib yurganda «Jun hosili» beruvchi daraxtlarni ko'p ko'rgan. U shunday deb yozadi: «Uning toknikiga o'xshagan, lekin kichikroq bargi bor, u meva emas, balki kattaligi g'o'ra olmachalik og'zi berk idish tugadi, uning ichida jun bo'ladi. Pishgandan keyin egiladi va junini tashqariga chiqaradi,

kitobida yozilgan vahimaga nima deysiz? Mana o'qing, u nima deydi: «Ko'rinishidan u qo'ziga o'xshaydi va qornidan poya yoki ildiz o'sib chiqib, uning vositasida bu o'simlik hayvon xuddi qovoq singari yerning yuza qatlamidagi tuproq bilan bog'lanadi. U atrofidagi poyasi yetadigan joydagi barcha o'tlarni yeb bitiradi. Bu mavjudotni izlab borgan ovchilar uni kuch bilan qo'lga ololmaganlar yoki o'rmdan jildirolmaganlar. Faqat nayza bilan aniq mo'ljalga urib, poyasini sindirganlaridan keyingina hayvon-jon bergan».

Kuz kelganda lo'ppi-lo'ppi ochilib, ko'zni quvontiradigan oq paxta haqida gollandiyalik Struys 1681 yili shunday deb yozadi: «Shakli, tashqi ko'rinishi jihatidan u qo'yga juda o'xshaydi, boshi, oyoqlari va dumi bor. Uning terisi juda oq va mayin momiq bilan qoplangan. Poyasi baland bo'lmaydi, chorakam bir metr, ba'zida undan ham balandroq bo'ladi. Boshi pastga osilib turadi, xuddi o'tlayotganga o'xshaydi, o't quriganda, u ham o'ladi. Bo'rilar bu o'simlikni juda yaxshi ko'rishadi». Oddiy xalq bu

VI bob

FUQAROLIK

21-modda. O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

22-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqaroligining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

baxmalrang paxta butazorlarini uchratish mumkin. Paxta hosili bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlardan birini egallab kelayotgan Xitoyda g'o'za dastlab manzarali o'simlik sifatida o'stirilgan. Imperatorning anvoyi gullar va daraxtlar o'sadigan bog'larida g'o'za guli eng chiroyli o'simlik hisoblangan. Uning shoxlariga kumush qo'ng'iroqchalar osib qo'yilgan. Bir yillik paxta navlarini yurtimizda otabobolarimiz juda qadim-qadim zamonlardan beri yetishtirib keladilar.

VII bob

SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIK LAR

24-modda. Yashash huquqi har bir isonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

25-modda. Har kim erkinlik va daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi va qamoqda saqlanishi mumkin emas.

26-modda. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sud qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxs o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

27-modda. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazilishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

BUGUNGI GAZETXON—ERTANGI KITOBXON

"Men boylikka, pul topishga emas, balki umrim davomida kitoblar yig'ishga qiziqdim. Shaxsiy kutubxonamda yillar davomida to'plaganim 10 mingdan ortiq kitoblarni bor. Birgina Navoiyning 15 tomlik, Boburning "Boburnoma" asarlarini dunyoning hech bir xazinasiga almashmayman", - deydi Toshkent Iqtisodiyot universiteti qoshidagi Iqtisodiyot gimnaziyasining dosenti, O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochisi Muhiddin aka JO'RAYEV.



DUCH KELGANINI EMAS, TANLAB O'QING

Aziz bolajonlarim! Mutolaani avvalo gazeta o'qishdan, boshlasangiz kelgusida yetuk kitobxon bo'lib yetishasiz. Esimda, o'quvchilik paytlarimizda doimo "Tong yulduzi" (ilgarigi "Lenin uchquni") gazetasiga butun sinfimiz bilan birinchilardan obuna bo'lardik. Uning har bir sonini intizorlik bilan kutib, shunchaki majburiyat uchun emas, balki hayajon va qiziqish bilan o'qib chiqardik. Bordi-yu ushbu gazetada biron-bir maqolamiz yoki kichikkina bir she'rimiz chop etilsa bormi haqiqiy qahramonga aylanardik. Bu voqea butun maktab bo'yicha shov-shuv bo'lardi. Avaz O'tar haqida "Ozodlikni kuylagan shoir" nomli birinchi yozgan maqolam 1954 yil aynan shu gazetada chop etilgandi. Keyinchalik ko'plab risolalarim, o'quv metodik qo'llanmalarimni bosilib chiqishiga ana shu gazetadan olgan bilimim asos bo'ldi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Kishida ishtiyoq bo'lsa gazetami, kitobmi qo'ldan qo'ymay mutolaa qiladi. O'qiganing sari ma'nomazmunini tushinib, go'yo ulardagi qahramonlarga aylanib qolging kelaverarkan. Doimo ilg'orlar safida bo'lganim, nutqim ravonligi bois hech qiynalmay Farg'ona Davlat Pedagogika instituti talabasi bo'ldim. Qirq to'rt yildan buyon ustozlik kasbida mehnat qilayapman. O'z tajribamdan kelib chiqib bolajonlarga duch kelgan gazeta va kitoblarni emas, balki saralab o'zingiz uchun



eng kerakligini o'qing, deyman.

HIMOYACHIMIZ

Ertangi kunimizga nazar bugunimizning sarhisobidan boshlanadi. Mustaqilligimizning behisob ehsonlariga shukronalar aytaman. Gerbimiz, Bayrog'imiz, Konstitutsiyamiz bular SIZU BIZning o'zligimizdir. Himoyachimiz bo'lgan Qomusimizning har bir bobini o'qib ma'nosiga tushinib

yetsangiz, huquqlaringizni teran anglaysiz. Shu o'rinda o'quvchilaringizga: himoyachimizni himoya qilish bu sizning ham burchingizdir. Buning uchun go'yaviy bo'shliqdan, ya'ni fikrsizlikdan qoching. Albatta ilmi, kuchli, har sohada ilg'or bo'ling, hurligimizni kelgusi nasalarimizga eson-omon yetkazing, deyman. Himoyachimizda inson erkinligi, teng huquqliligi oynadek ravshan ko'rsatib qo'yilgan. Agar mendan qomusimiz sizga nima berdi, deb so'rasalar, erkimni, dilim va tilimning birligini berdi, degan bo'lardim.

OILA MAKTABI

Har bir oilada farzandlarga ota-ona birinchi muallim bo'ladi. Ularning yurish-turishi, axloq-odobi bolalariga ilk maktab vazifasini o'taydi. Farzand tarbiyasi o'ta murakkab. Oilamizda o'n nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdik. Har birining o'z dunyoqarashi, intilishi, ruhiyati har xil. O'g'il g'izlarimizning barchasi turli sohalarda mehnat qilishadi. Ularning kamolini ko'rib, qalbim g'ururga to'ladi. Farzandlarimga ota-ona bolalar uchun birinchi tarbiyachi ekanligini bot-bot takrorlayman. Bolaning ko'ngli nozik bo'ladi. Arzimagan xafagarchilik tufayli uni hayotga munosabatini o'zgartirib yuborish mumkin. Oqibatda bundan otonaning o'zi jabr ko'radi. Birinchi muallim har sohada birinchiligini aslo unutmasin.

Diyorimizning barcha bolajonlariga oilaviy maktabining munosib shogirdlari bo'lishini tilayman!

Jamila ERDONOVA yozib oldi.

BO'YALGAN KARTOSHKKA

*Sho'rvani qilish uchun
Dastyor qiz Nigora.
Kartoshkani obkeldi,
Lekin u-chi qop-qora.*

*-Oyi, der chaqqon qiz,
Nega bular qora, kir?
Shuncha ko'p kartoshkani,
Bo'yadimi musavvir?*


FOSHBAQANING KOSASI

*-Foshbaqajon, nega sen,
Kiyib olding tosh kosa?
U kun ovqat yeyish-chun,
Qidirdim-da men rosa!*



*-Shuning uchun doimo
Kosam tepamda turar.
Agar sho'xlik qilsang-chi,
Oyijoning xo'p urar!*

*-Ursalar tez chopaman
Yetolmaydilar oyim.
Yana meni maqtab-chi,
Bo'lib qolar muloyim!..*




To'xtaxon RAHIMOVA,
Namangan viloyati, Namangan
tumanidagi 8-maktabning faxriy
o'qituvchisi.

MAQTANCHOQ GILOSLAR

(masal)

Kunlar isib, Gilos daraxtining mevalari g'arq pishibdi. Daraxtda pishgan bir to'da giloslari o'zaro maqtanishga tushibdilar. Biz daraxtning eng yuqorisidamiz. Bu yerga quyosh ham yaxshi tushadi, kislorod ham ko'p. Pastedagilar esa bizning soyamizda - bizdan keyin pishishadi, deganlaricha o'zlarini mag'rur tutisharkan. Bir kuni o'sha mag'rur, maqtanchoq giloslarni qushlar cho'qib, kemtik qilib qo'yishibdi.



Arilar, pashshalar talab, mazasini ketkazibdi. Puchayib, qurib qolgach, yerga to'kilib, chumolilar uyiga qishki xo'rak uchun yig'ilibdi. Pastda pishgan giloslari esa ancha payt daraxtga husn berib, pishib yetilgach esa ohistalik bilan terilib, dasturxonlarning ko'rkiga aylanibdi.

Mavzuna NOZIMOVA,
Tojikiston Respublikasi,
Ho'jand shahri.

28-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

29-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

30-modda. O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Kuz fasli. Quyosh olachalpoq bulutlar orasida muhtasham kezadi. Suvlar, go'yo og'ir uyquga cho'mgandek, holsiz suzilib oqadi. Naq alangadek oltinlangan daraxtlar qimir etmaydi. Qop-qanor, o'tincho'p ortilgan arava, ot, eshak, xachirlarda bog'dorlar shahar tomon sekin boradilar. Kuz qishning xabarchisi, deb barcha kishilar qish tashvishini o'ylaydilar.

Kichkina Alisherning ham o'ziga yarasha tashvishi bor. Har kun ertalab onasi bir shokosa qaymoqqa yumshoq non burdalab, oldiga qo'yar, Alisher naridan-beri oshalab, taxtani jildga suqadi-da, maktabga yuguradi. Domulla hali bo'ya puli, hali ko'mir puli so'rar.

Shogirdlar domullani hurmat qilar, ham qo'rqar, hayiqar edilar. Barvasta qomatli, hamisha sallasi katta, o'siq qoshlari ostida ma'nodor ko'zlar... Butun qiyofasida ulug'vorlik aks etadi. O'zbek tilidan tashqari u fors va arab tilini mukammal bilar, shogirdlarga bu tillardan saboq berar edi. Savodi chiqqan shogirdlar fors shoirlarining she'rlarini ravon, ohangdor o'qirdilarki, Alisher ulami havas bilan tinglar edi.

Alisher taxtani suvdek bilar, har kuni uyda sabog'ini bir necha daf'a takrorlar, otasi ham o'qitib tinglar, tekshirar edi. Ammo domullasi tushkur uni taxtadan yuqoriga tezroq o'tqaza qolmasdi. Nihoyat, bir kun u Alisherni yoniga chaqirdi:

-Barakalloh, bo'tam, zehning baland, erta haftiyak keltir! - Domullaning serajin yuziga tabassum yoyildi. -Rasmi, mullabachchalar haftiyakka qo'shib quyimoq keltirurlar, uqdingmi?

-Albatta keltirgumdir, -deya javob berdi Alisher mamnun holda.

Peshin chog'i ozod bo'lgan bolalar har vaqtdagidek shovqin to'lg'inida ko'chaga otillar ekanlar, bir to'da shogirdlar Alisherni chaqirdilar:

-Yur biz bilan Chorsuga, bugun mahbuslarga jazo berilur.

Alisher bir zungina ikkilandi-da, so'ng o'rtoqlariga qo'shilib Chorsu tomon shoshildi.

Chorsuda xaloyiq qalin. Kambag'al dehqonlar, chorikorlar to'da-to'da, barchasining yuzlarida qayg'u, ko'zlarida g'azab chaqnar, to'dalashib shivir-shivir so'zlashur edilar. Soqchilar do'q va zug'um ila birovni turtib, birovni so'kib, qo'llarida darra, maydonda yururdilar. Shogirdlar olomon orasidan bazo'r maydon ichiga o'tib oldilar.

-Voy-bo', qator-qator dorlar qurilibdi-ku! -dedi dahshatli hayajonda bir bola.

-Jallodlar ko'rinmaydi?

-Dehqonlarni qamoqxonadan jallodlar keltirur, -deya javob qildi bolalardan kimdir.

Alisherning qovog'i soliq, hayajonda dorlarga bir-bir qarardi. Hilarlari parishon, dorlarni ko'rgan hamon titroq bosmishdi. U otasidan, bobosidan, aqrabolardan,

ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

o'rtoqlaridan dor, darra, turli jazolar haqida eshitgan, ammo o'zi domi birinchi daf'a ko'rishi edi.

Shu tobda yelkasini kimdir turtganidan qattiq seskanib ketdi. Bukchaygan, hammahalla kekxa bo'zchi unga engashib shivirladi:

-Oyoq ostida ne qilib yurursen, jo'na uyingga. Buni dor



deydilar!-deya maydon o'rtasiga imo qildi u. -Hafta sayin bo'lib turaturgan savdo bu.

-Yolg'iz emasmen, bobo, o'rtoqlarim bor, tashvish qilmagaysiz, - deb javob berdi Alisher va kattalardan eshitgan, diliga qo'yib olgan iboralar ila jiddiy tusda so'radi: -Jahannam dahshatiga o'xshaydur, ne voqea? Qishloqlardan keltirilib hib etilgan dehqonlar emish. Och-yalang'och bu bechoralarning gunohlari ne ekan?

-E-e, jujuq, gap ko'p, joyi emas, -deya shivirlab javob berdi bo'zchi. -Zolimlar besanoq bu jahonda. Kambag'allar, chorikorlar

beklarga qarshi qo'zg'alon ko'targanmishlar. Bu g'ariblarning yemishi arpa non bo'lsa, shunga ham qursog'i to'ymasa, ne degan narsa!.. Beklarning har birida ming-ming tanob er, tillosi sandug'iga sig'maydur. Ey, falak!

Shu payt maydon o'rtasiga «po'sht, po'sht!» xitoblari ila jallodlar va sipohiylar yetti mahbusni olib keldilar. Ularning ust-boshi juldur, ranglari bo'zdek oqargan, kishanband oyoqlari esa qo'rg'oshindan quyilgandek og'ir, bazo'r surgab bosishur edi.

Mahbuslar orasida hirotlik bir yosh yigit va nozik qomatli, quyuq sochlari uzun, boshiga qalin ro'mol yopingan bir qiz ham bor edi. Xaloyiq bir to'lg'inlanib jim bo'ldi, lekin bu dahshatli sukunatni mahbuslarning bola-chaqalari, ota-onalari, xesh-aqrobalarining yig'isi, alamli faryodi, fig'oni buzib turardi. Ko'plari tovushsiz yig'lar, ko'zlari shishgan, yuzlaridan tomchi-tomchi yosh dumalanur edi. Mehnat ahli va g'ariblarning ko'ngillari vayron, barchasi qayg'u, g'azab to'lg'inida. Lekin tamom loqayd, beparvo tomoshabinlar ham oz emas. Ayrim sarkardalar, to'ralar, savdogarlar hatto xushnud gerdaygan.

-Jazosi dor bularning! Ablahlar qo'zg'alon ko'taribdi-ya, podsho hazratlari o'zlari borib yanchib

tashladilar, -dedi bir yasovul.

Ustida yarqiroq shohi to'n, oyog'ida g'irchillama mahsi-kafsh, boshiga yangi taqya qo'ndirgan, xo'rozdek qip-qizil bir yigit yonidagi birovni turti:

-Qiz bilan yigitni qarang!

-Ha-ya, bular oshiq-ma'shuq emishlar, -deb kuldi unisi.

-Qiziq voqea, -deb so'zga aralashdi yana bir yigit. -Ikkisi hammahalla, yigit madrasada

VIII bob

32-modda. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

33-modda. Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki ta'qiqlash huquqiga ega.

34-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

35-modda. Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

o'qurdi, nihoyatda savodli, nutqi o'tkur, qiz esa ofatijon. Tanbur, dutorni sayratishda mahorati benazir. Otasi ila birgalikda atlas to'qiydiki, dunyo ko'rmagan bu kabi chevarni. Savodi ham yaxshi, picha ta'bi nazmi ham bor emish.

-Parivash raqsni ham bilarmikan?-deb so'radi quloq solib turgan ma'murlardan biri va aksa urib yubordi. -Iya, shamollabman, shekilli.

-Raqsda ham monandi yo'q emish. Ha, voqeaga kelaylik, -deb davom etdi haligi yigit.

-Davlatmandlardan bir kimsa qizga xushtor bo'lib, sovchi yuborgan. Ota-ona maslahatlashganlar. «Badavlat odam, biroq bir to'yda ko'zim tushgan edi, qirqlarga yetgan, cho'pdek oriq, ko'zlari munchoqday, xunuk kishi. Qaydam, tilab olgan yolg'izgina farzandimiz uvol ketmashkan?», debdi onasi. Keyin ota-ona rozi bo'lib:

«Qizim, davlatga, oltinkumushga ko'milasan», deb qizni ko'p avrashibdi-yu, qiz: «O'zimning suyganim bor», deb aslo ko'nmabdi. U zangin bekning podshohimizga xeshlik bir joyi bor shekilli, xullas, qizni buzuq, yomon yo'lga kirgan deb, unga ko'p og'ir tuhmat qo'yib, chaqibdi. Podshoh g'azablanibdurlar va

qizu yigitni dorga osmoqqa amr etibdurlar.

-Yo'q, yo'q, g'alat o'ylabdursiz, qiz va yigitning xatti-harakati qo'zg'alonga munosabatlidir, -dedi tag'in bir kishi. -Zanginbek qizga talabgor bo'lgan, qizning iziga tushgan, ammo yetisha almaganidan, o'ch olish niyatida podshohga arz qilib, ularning qo'zg'olonchilarga do'stlik, hamfikrlik sirini ochgan. Haqiqat bundoqdur, birodar.

Xaloyiq orasida shovqin ko'tarildi. A'lam hazratlarining noibi podshoh buyrug'ini, mahbuslarning

IX bob

IQTISODIY VA IJTIMOY HUQUQLAR

36-modda. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

37-modda. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat ta'qiqlanadi.

38-modda. Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

39-modda. Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

40-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

42-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

o'limga hukm etilganligi haqidagi farmonni keltirgan edi.

Noib-zarbof to'n, shohi salla, kalta qalin qora soqolli, yag'rindor kishi-farmondagi har bir so'zni donalab, salmoq bilan o'qiy boshladi. Barcha sukutda, biror kishi churq etmas, ba'zilarining ko'zlari jiqqa yosh, ba'zilar o'pkalari to'lib alamdanda xo'rsinib qo'yishar edi.

Bo'zargan, yig'idan to'liqqan Alisher dorga tikilar, qayta-qayta mahbuslarga ko'z yugurtirar edi. Madrasa aholidan bo'lsa kerak, bir yigit uning yelkasidan quchdi.

-Ukam, o'zingni bos, hali mundoq qabohatlarni ko'p ko'rursen, zolimlar bisyoru bisyor, podshohlik -qonxo'rlik, deydilar.

Peshai podshohon nest ba chuz jabru silam,

Adlu insof hama xeru zabar mebinam.

Tushundingmu buning ma'nosini? Forsiyni bilurmisen? Turkiyda:

«Podshohlar qilmishi jabru silamdin o'zgamas,

Adlu insofning alarda yo'qligin ko'rmakdamen»,-

degani. Mana, jujuq, mavlono Hofizning ham bundoq qabohatlardin qalbi yara erkan.

Alisher ko'z yoshlarini artib, o'pkasini bosishga tirishardi.

(Davomi bor.)



OYMOMA

*Oymomajon, oymoma,
Nega yurasan xomush?
Oymomajon, oymoma,
Yo ko'rdingmi yomon tush?*

*Oymomajon, oymoma,
Senga tilayman to'zim.
Xuzingdagi dog'larni,
Olib tashlayman o'zim.*

Nargiza YUNUSOVA,
4-sinf o'quvchisi.

DARAXTLAR SALTANATI

Bor ekan-u yo'q ekan. Och ekan-u to'q ekan. Qadim-qadimda daraxtlar saltanati bo'lgan ekan. Saltanat juda chiroyli, serhasham, go'zallikda tengi yo'q ekan. Saltanatni tomosha qilish kattayu kichikning orzusi ekan. Bu yerda daraxtlar qiroli - Chinor podsho ekan.


Daraxtlarning har biri o'zicha chiroyli bo'lib, doimo ahillikda yashab, mehr-muruvvatlarini bir-birlaridan darig' tutishmas ekan. Ularning ichida Jiyda daraxti tabiblik vazifasini o'tar, o'zidan shunday bir nur taratarkan-ki, bu nurdan kasalmand daraxtlar shifo topisharkan.

Kunlarning birida Kasallik degan balo kelib, Jiydaga do'q ura boshlabdi:

-Hoy, tabib, mening yo'limga to'g'anoq bo'lma. Bo'lmasa juda yomon bo'ladi!

Jiyda esa unga parvo qilmay, yaxshilik yo'lidan qaytmasligini aytibdi.

Kasallik g'azab otiga minib, Jiydaning oltinday barglari ustidan kul sochib yuboribdi. Buni ko'rgan Jiydaning do'stlari Kasallikni o'z saltanatlaridan quvib chiqarishibdi. Lekin Jiyda bu kasaldan forig' bo'lmabdi. Shu-shu Jiydaning barglari ko'rimsiz bo'lib, o'zi esa ma'yuslanib qolgan ekan.



Umida NIYOZOVA,

Termiz tumanidagi 11-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

USTOZ O'ZI, SHOGIRD QIZI!

O'g'iloy Yo'ldosheva bir necha yillardan buyon Toyloq tumanidagi 5-o'rta maktabda ona tili va adabiyot fanidan yoshlarga saboq beradi. Chehrasidan nur yog'ilib turgan muallima bilan so'zlasharkanman, maktab hayoti, o'quvchilari haqida g'urur bilan gapirishdan hech charchamasdilar.

-Hayotimni bolalarsiz tasavvur qilolmayman, agar qayta tug'ilsam hech ikkilanmasdan albatta o'qituvchi bo'lardim. Bor-bilimimni, kuch-quvvatimni o'quvchilarim — farzandlarimga bag'ishlasam, deyman.

Darvoqe, O'g'iloy opa she'rlar ham yozib turar ekan. Onajonining tunlarni bedor o'tkazib, ijod qilishining guvohi bo'lgan Nargizaxonning ham ularga havasi kelib, o'z fikrlarini qog'ozga tushira boshlabdi. -Barcha

shogirdlarim qatori qizimga ham ustozlik qilayapman. Yozgan she'rlarini iymanibgina yonimga olib keladi, unga qarab turib o'zimning bolaligim yodimga tushadi, -deydi jilmayib O'g'iloy opa. Tahriyatimizga olam-olam orzu umidlar bilan tashrif buyurgan ustozga va uning shogird qiziga ijodiy barkamollik tilaymiz.

HAYRA

*Qizcha keldi maktabdan,
Qo'lida ikki surat.
Biri eshak, biri ot,
Ko'zida ajib hayrat.
-Buvijon, qarang bunga,
Ot kattami yo eshak?
Ko'rayapsan-ku, ot katta,
Bu savol nega kerak?
Nega «Ot»da ikki harf,
«Eshak»da-chi, to'rt dona?
Qani bunda haqiqat?
Deya Nargiz hayron-a.*

O'g'iloy YO'LDOSHEVA.

XANDALAR

Har kecha Boburjonga ertak o'qiydigan buvijoni ko'zlariga ko'zoynak taqib olarkan. Bir kuni Boburjon buvisidan:

-Buvijon ko'zoynak harflarni katta qilib ko'rsatishi rostmi?-deb so'radi.

-Ha, bolajonim.

-Unda-chi, Siz menga tort kesganingizda ham albatta ko'zoynagingizni taqib oling, xo'pmi?

Muzeydan qaytgach, o'qituvchi o'quvchilardan so'radi:



-Bolalar, muzeyda sizga eng ko'p yoqqan narsa nima bo'ldi?

-Nafisaning zinapoyadan dumalab tushgani, -javob berdi Bekzod.



Malika FAYZIYEVA,

Poytaxtimizdagi 27-maktabning 7- «B» sinf o'quvchisi.



1. Lahza
2. Il
3. Aziz ne'mat
4. Xol
5. Araz
6. Ism(qiz)
7. Inson a'zosi
8. Yaxshi emas
9. Qadim shahar
10. Sartarosh buyumi
11. Sitrus meva
12. Go'zal
13. Alam
14. Ota, padar
15. In
16. Qo'sh
17. Arab harfi
18. Maz..., Jiz...

Tuzuvchi: Nargiza RAHMONOVA, Bekobod shahridagi 9-maktabning 6- «A» sinf o'quvchisi.

Ona yurtini - o'zida beshing
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 11167

Buyurtma N: J 758

Dizayn va sahifalovchi:

Otabek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Gulyuz
ARIFJANOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45